

LESLIE loyihasi



Co-funded by the
Erasmus+ Programme
of the European Union



101129032 - LESLIE — Yer resurslarini boshqarish, atrof-muhit va qattiq chiqindilar: Markaziy Osiyoda ta'lif va biznesda

Loyiha qisqartmasi: LESLIE

Loyiha turi: Erasmus+ oliy ta'lif sohasida salohiyatni oshirish (CBHE)

Davomiyligi: 2024-2027 yillar (36 oy)

Koordinator: Valensiya Politexnika Universiteti (Ispaniya)

Moliyalashtiruvchi: Yevropa Ittifoqi

Veb-sayt: leslieproject-eu.com

Ishtirokchi davlatlar: Ispaniya, Italiya, Kipr, Qozog'iston, O'zbekiston

Loyiha haqida umumiy ma'lumot

Erasmus+ CBHE doirasidagi **LESLIE** loyihasi (Yer resurslarini boshqarish, atrof-muhit va qattiq chiqindilar — Markaziy Osiyoda ta'lif va biznesda) Markaziy Osiyodagi oliy ta'lif muassasalarida, xususan

Qozog'iston va O'zbekiston universitetlarida **barqaror yer resurslarini boshqarish (SLM)** bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni maqsad qilgan.

Loyiha iqlim o'zgarishi, cho'llanish, yer degradatsiyasi, suv tanqisligi va qattiq maishiy chiqindilarning ortib borayotgan muammolariga zamonaviy ta'lif vositalari orgali javob beradi. Bu faoliyat **Yevropa Yashil Bitimi** va **raqamli transformatsiya** ustuvorliklari bilan mos keladi.

Loyihaning asosiy maqsadlari

1. Qozog'iston va O'zbekistonda **Barqaror Yer Resurslarini Boshqarish bo'yicha HUBlar** tashkil etish;
2. Barqaror yer resurslarini boshqarishga oid **mikro-kvalifikatsiyalar** ishlab chiqish va joriy etish;
3. SLM bo'yicha bakalavriat va magistratura yo'naliishlari uchun **raqamli ta'lif materiallari** ishlab chiqish;
4. Barcha ta'lif resurslarini birlashtiruvchi **onlayn "Toolbox" platformasi** yaratish;
5. **STEHEAM yondashuvi** asosida zamonaviy ta'lif texnologiyalarini tatbiq etuvchi **Future Learning Incubator** tashkil etish.

O'zbekistondagi hamkor tashkilotlar

- TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti
- Farg'ona politexnika instituti
- Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti (TIQXMMI filiali)
- Buxoro davlat universiteti
- Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi

TIQXMMI MTU'ning loyihadagi roli

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti quyidagi yo'naliishlarda faol ishtirok etadi:

- **LESLIE mikro-kurslarini** O'zbekiston oliy ta'lif tizimiga integratsiya qilish;
- O'qituvchilar va xodimlar uchun **salohiyat oshirish treninglari** tashkil etish;
- **Moodle va HEMIS tizimlari** orqali raqamli ta'lif modullarini joriy etish;
- **STEHEAM metodikasi asosida** kelajak avlod talabalariga mo'ljallangan SLM kurslarini ishlab chiqish va tarqatish.

O'zbekiston uchun dolzarbliji

Ushbu loyiha O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasiga xizmat qiladi:

- Barqaror rivojlanish, ekologiya va chiqindilarni boshqarish sohasida **yangi mutaxassislar tayyorlash**;
- **Masofaviy va aralash ta'lif shakllarini** rivojlantirish;
- Oliy ta'limi **mehnat bozori ehtiyojlari** bilan muvofiqlashtirish;
- **Yashil iqtisodiyot va aylanma iqtisod** tamoyillarini ilgari surish.

TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetidagi bog'lanish uchun shaxs

Sherzod Rakhmonov

Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

Email: sherzod.rakhmonov@gmail.com